



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning
20__ - 20__ - o'quv yiliga adabiyot fanidan
7 - sinflar uchun II chorak

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 7-sinf adabiyot II chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
II chorak				
1.	Muhammad Ali: “Gumbazdagi nur” dostoni: “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Asar matni bilan ishlash	1		
2.	Muhammad Ali: “Gumbazdagi nur” dostoni: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Doston	1		
3.	Hamza: “Jonlarni jononi Vatan”. Sirojiddin Sayyid: “Vatanni o‘rganish”. Tahlil. Solishtirish	1		
4.	Hamza va Sirojiddin Sayyid lirikasini solishtirish	1		
5.	Nabi Jaloliddin. «Ota» hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
6.	Nabi Jaloliddin. «Ota» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
7.	Nabi Jaloliddin. «Ota» hikoyasi: Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
8.	BSB-2. Taassurot yozish (50 ball)	1		
9.	Sergey Yesenin: «Shahinam, o, mening Shahinam». Rasul Hamzatov: «Qushqanotli, hoy karvon...». Tahlil. Solishtirish. Barmoq tizimi.	1		
10.	Sergey Yesenin va Rasul Hamzatov lirikasini solishtirish	1		
11.	Fanlararo aloqa: Adabiyot va musiqa	1		
12.	Takrorlash	1		
13.	CHSB-2 (40 ball)	1		
14.	Xatolar ustida ishlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Muhammad Ali. “Gumbazdagi nur”. Asarini o‘qishga tayyorlanamiz bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Asar matni bilan ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma’naviy, intellektual rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

oila, maktab, mahallada bo‘layotgan jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish.

aniq reja tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, chizmalarni o‘qiy olish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Shoir, tarjimon, olim Muhammad Ali

(Muhammad Ali Ahmedov) 1942-yili Andijon viloyati da dehqon oilasida tug‘ilgan. Muhammad Ali bolaligidan adabiyotga, ijodga mehr qo‘ygan, birinchi she‘rini yozganida 3-sinfda o‘qirdi. O‘n besh yoshida ilk she‘ri respublikaning nufuzli gazetalaridan birida nashr etildi. O‘rta maktabni tugatib, Moskvadagi Adabiyot institutida tahsil oldi. Muhammad Ali uzoq yillar turli mas‘ul lavozimlarda faoliyat olib bordi, asarlari uchun

ko‘plab nufuzli mukofotlar bilan taqdirlandi.

Siz bilan Muhammad Alining “Gumbazdagi nur” dostonini mutolaa qilamiz. Unda vatanimizdagi ayrim mashhur inshootlarning qurilishi tarixi, mashaqqatlari, millatimizning buyuk siymolari haqida hikova qilinadi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Rasmlardagi inshootlarga e’tibor bering. Ular qayerda joylashgan? Ularni kim qurganini bilasizmi? Agar sizga o‘z shahringiz uchun imorat qurish imkoniyati berilsa, nima qurgan bo‘lardingiz?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu Muhammad Ali: “Gumbazdagi nur” dostoni: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Doston

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojida o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, va ulardan foydalana olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma’naviy, intellektual rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash:

a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

GUMBAZDAGI NUR (qisqartirib olindi)

I

Turibdi bir bola
Maqbara qoshida.
Savol-la band edi
Bolaning yodi:

“Go‘ri Amir nima!..”
“Ne ich-u tashida?..”
O‘zi soddagina.
Temurdir oti...
Gumbazga termilib
Og‘riydi bo‘yni.
Chiqadi, kiradi
Qabrga tiriklar,
Bolakay turadi
Unutib uyni.
“Vo-o-o!.. Qandoq qurganlar?
Juda ham katta-ku?
Bo‘lganmi kranlar
Avvali ham, a?”
Domlamiz der edi:
“O‘tmishda, hattoki,
Arpa non yer edi
Qari-yosh... Hamma!”
..Tushadi esiga
Yana ko‘p gaplar,
Ilashar ko‘ziga
Gumbazdagi nur.

Mittigina bolasan asli,
Xayolingda qiziq xayollar.
Bunday o‘yga borishar, balki,
Dunyoni bir qayirgan chollar.
Ularga-ku yarashar, ukam,
Ularga-ku, bu narsa odat.
Lekin sening o‘ylaring bu dam
Meni hayron qoldirar faqat.
Senga nima dunyo taqdiri?
Dunyo ishi bitgusi sensiz.
Bilsang, mushkul bu o‘ylar siri,
Kattalar ham qolishar unsiz,
Sen-ku, bola! ..

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Parchada shoir gumbazni qanday tasvirlamoqda? Uni qurdirgan Amir Temurni-chi? “Bir mahallar dun yo edi tor, Kichik qabr unga keng endi...” misralari bilan muallif nima demoqchi? Qanday “eskirmagan qari falsafa”ni nazarda tutmoqda?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

Samarqand – mana!..
Ertakdan ham qadimligi rost.
Salobat-u shukuh, tantana –
Faqat buyuk poytaxtlarga xos.
Tegrasida parvona bo‘lgan
Zarafshon ham betin yugurar.
Minoralar “Ko‘k – baland” degan
Lofchilarning og‘ziga urar.
Madrasalar mo‘ysafidsimon
Ro‘parangda o‘qishar duo.
Qalandarlar kezar har tomon.
Tillarida: “Haq, do‘st, yo ollo!..”
Nariroqda bozor. Tim aro
Besanoqdir g‘imirlagan jon,
Buyon igna tashlansa ammo,
Tushmog‘iga topilmas imkon.
Buyuk poytaxt yashardi go‘yo
Farog‘atning to‘shagida mast.
Lekin jang-u jadallar aro
Yetmas edi nafasga nafas...
Temurbekning shaxti ko‘p baland!
Yer-u ko‘kni u taq tindirar.
Shu lahzada qaytsa Samarqand,
Yana otga uradi egar.
Shunchalar tez dunyo sur‘ati,
Shunchalar tez olindi Halab!
Jahon titrar, Boyazid kabi
Qolmasin deb hech kimsa qaqshab!
Qayga borsa ul chaqmoq qadam,
G‘olibligin aylardilar sharh.
Shunday yashar edi Samarqand
Zafarlarning og‘ushida g‘arq...

Qanchalar tez dunyo sur‘ati!
Munchalar zud u bergan farmon!
Bu kun poytaxt ma‘yus turadi:
Fano topmish Muhammad Sulton!
O‘lim asli qismati azal,
Hammaning ham boshida bor gap.
Amir bilar va lekin bu gal
Tan olgisi kelmaydi, ajab.
Eng suyukli nabira qani?
Qirqildimi lochin parvozi?

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

30 listdan iborat adabiyot fanidan 7-sinf II chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**